

# ESHITMADIM DEMANGLAR!

«Tong yulduzi» gazetasining faol, yosh muxbirlari diqqatiga!  
«Tong yulduzi» gazetasiga yo'llayotgan maqola, xabar, lavha, she'r yoki hikoyangizga qo'shib (ilova tarzida) o'zingiz haqingizda to'liq ma'lumot, tug'ilganlik haqidagi guvohnomangizdan ko'chirma nusxa hamda 3x4sm. hajmdagi 2 dona suratingizni qo'shib yuborishingizni so'raymiz.

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!



2009-yil  
13-iyul  
N:28  
66725

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



8-betga qarang

Ravil ALBEKOV:  
"Tong yulduzi"ni nabiralarim

**A**mir,  
maliya,  
liyalar  
ham o'qishyapti

## DUSHANBADAN

**RUSTAM, TABRIGIMIZNI QABUL ET!**

Singapurda o'smirlar o'rtasida o'tkazilayotgan 1-Osiyo o'yinlarida yengil atletikachimiz Rustam Qurbonov bronza medalini qo'lga kiritdi. Gazetamizni kuzatib boring, yaqin sonlarda u haqda ma'lumot beramiz.  
(Respublika va xorij matbuoti asosida tayyorlandi)

1  
2  
3  
4  
5  
6  
7

## «QYOSHOY»DA YANGI SPORT BO'LIMI

Ellikqal'a tumanidagi «Quyoshoy» maktabgacha ta'lim muassasasi qoshida taekvan-do klubining bo'limi ish boshladi. Bundan xursand bo'lgan bolajonlar poytaxtimizda taekvan-do (VTF) bo'yicha o'tkazilgan Markaziy Osiyo o'yinlarida g'olib bo'lgan akalari - oltin medal sohibi Qosim Urganchboyev va kumush medal sohibi Ersulton Amanberganovlar ortidan borishni ko'zlashmoqda. Omad yor bo'lsin, bolajonlar!

## DUSHANBAGACHA

**BIZDA HAM «TONG YULDUZI» BOR!**

Maktabdagi to'garaklarning yozda ham o'z ishini to'xtatmasligi juda yaxshi-da! Biz ham sinfdoshlarim bilan «Tong yulduzi» to'garagini tashkil etdik. Gazetaning har sonini o'qib, muhokama qilib boryapmiz. Bir galgi mashg'ulotda barchamiz gazetaga xat yozishni mashq qildik. Ustozimiz Xursanoy opa Polvonova yordamida to'garagimiz faoliyati haqida tahririyatga maktub yo'lladik.


Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 52-maktabning 6-«A» sinf o'quvchilari

**TA'TILDA HAM KITOB O'QISHYAPTI**

Gazetani o'qib bo'lgach, siz ham hayajon bilan tahririyatga xat yozishni boshladingiz. Shunday kezlarda xorazmlik tengdoshingiz, andijonlik do'stingiz-u, xullas, ko'plab siz kabi aqlli, gazeta-jurnallar bilan o'rtoq bo'lgan bolalar ham maktub bitayotgani xayolingizga kelganmi? Yuzlab maktublar?! Ha, shuning uchun barcha xatlar alohida bosilmay, umumiy sharhlanar ekan-da, deysizmi? Imkoniyatlardan kelib chiqib, hech bir xat e'tiborsiz qolmasin, deya, shunday yo'l tutamiz. Demak, navbat maktublar sharhiga. Ular orasida sizning xatingiz ham bo'lsa, ajabmas!



Xorazmlik qizlar dalalarda o'ynab, quv nab yozgi ta'tilni maroq bilan o'tkazayotganlari haqida yosh muxbirimiz Mahliyo Allakova to'lqinlanib yozibdi. U Qo'shko'prik tumanidagi 32-maktabda o'qir ekan. Mahliyo «Tong yulduzi»ning yoz mavsumida yanada rang-baranglashib borayotganini ham ta'kidlabdi. Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi 98-maktab o'quvchisi Go'zal Yashinova ham tabiat shaydosi chog'i, kamalakning sirliligi uni hayratga solar emish.



Gulasal Xushvaqtova esa bizga yo'llagan xatlari chop etilayotganidan xursand bo'lib, minnatdorchilik bildiribdi. U tahsil olayotgan Qashqadaryo viloyati, G'uzor

tumanidagi 18-maktab o'qituvchilari Dilrabo Bobomurodova, Maqsuda Qorayeva, Munajat Mustafoyevalar ham o'quvchilarining bu yutug'idan quvonibdilar.

Nilufar Valijonova bizga ko'p xat yozadi. U Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi 44-maktabning «Yosh jurnalistlar» klubi a'zosi-da!

Buxorolik Sunnatullo Akromov esa sport bilan shug'ullanishi, rasm chizishga qiziqishi haqida yozibdi. U G'ijduvon tumanidagi 2-davolanish maktab internatining o'quvchisi ekan.



Fazilat Rahmatullayeva Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 45-maktab rahbari Bog'dagul

opa Tojimurodova va ustozlari Amina opa Sobirovalarni juda hurmat qilishi haqida yozibdi.

Shahzoda Qarshiyeva ham Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 67-maktab o'qituvchilarini hurmat bilan tilga olibdi. Ustozlari Nargiza Mahmanazarova xuddi o'z onasidek mehribon ekan.

Endi toshkentlik tengdoshlaringizning xatlarini ham o'qib ko'ring-a? Sobir Rahimov tumanida istiqomat qiluvchi Umida Dehqonova Vatan haqidagi she'rini yo'llabdi. Mana, undan ikki satr...

O'zbekim, shuhrating tillarda doston, Qo'llaring har yerni aylagay bo'ston...

Toshkent viloyati, Chirchiq tumanida istiqomat qiladigan muxlisimiz Zuhra Rixsitillayeva yozgi ta'tilda Beruniy bobomizning «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini o'qiyotganini yozibdi. «Ha, yozgi ta'tilda albatta kitob o'qish kerak», deb yozadi Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 57-maktab o'quvchisi Mastura Abbosova. Gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan Mahbuba Qoyirova esa «Biz maktabingizda mehmon bo'lamiz» nomli maqolani o'qib, o'zi tahsil olayotgan Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 32-maktabi haqida yozib yuboribdi.

Yaqin orada gazetamizning 80 yilligi nishonlanishi haqida eshitgandirsiz? Samarqandlik tengdoshingiz Akobir Otaqulov «Tong yulduzi»ni «to'yi» bilan tabriklabdi.

Eh, bu kabi xatlarni o'qiyversangiz, turli voqea-yu xabarlardan voqif bo'laversiz. Shuning uchun siz ham soatlab televizor ko'rmas, kompyuterga tikilavermay, gazeta ham o'qib turing. Va astagina dars stolingizga o'tirib, bizga maktub biting.

Sayyora JO'RAYEVA



Katta yoshdagi odam bir kunda taxminan 23000 marta nafas oladi.

Odamzodda 10.000.000 xil rangni farqlay olish imkoniyati bor.

Og'iz bo'shlig'ida 40000 xil bakteriya mavjud.

Inson organizimida 2000 ta ta'm bilish reseptori mavjud.

Bir yilda yuragingiz 36800000 marta urarkan.

Moviy ko'zli insonlar boshqalarga nisbatan og'riqlarga ancha sezgir bo'lisharkan.

Erkaklar bo'yi 130 sm.dan, ayollarniki 120 sm.dan past bo'lsa, pakana maqomini oladi.

Dunyoda atigi bir harfdan iborat shaharlar ham bor. Shvetsiyada yu, Fransiyada esa u deb nomlanuvchi shahar mavjud.

**O'QITUVCHILAR TA'TILGA CHIQUVCHILARINI?**

Ta'tilda sinf rahbarimiz Salima opa Yusupovani, ustozlarimni sog'indim. Ularni ko'rgani maktabga bordim. Eh, ta'tilda ham o'qituvchilarning ishlari ko'p bo'lar ekan. Ustozim shunda ham meni o'ylab, kitoblar berib yubordilar. Ta'tilni foydali o'tkazishimizni xohlaydilar-da!

Dilorom XO'JANIYOZOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l shahri

**TABIAT VA SUV**


Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 4-maktabning 7-sinf o'quvchisi San'at Dushamov «Bioekosan»da bo'lib o'tgan «Tabiat: kecha, bugun, ertaga» anjumanida ishtirok etib, «Tabiat va suv» yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Anjuman ishtirokchilari uning ma'ruzasini a'loga baholashdi.

Sayyora POLVONOVA,  
292-maktab o'qituvchisi

**«LOCHIN»NING LOCHINLARI**

Shayxontohur tumanidagi 132-maktab qoshida, «Lochin» yozgi bolalar dam olish oromgohida har mavsumda 110 ta, 4 mavsum davomida esa 440 nafar bolajonlar dam oladilar. Yaqinda bu yerda «Marvarid» guruhi, «Beltepa» sport majmuasi o'quvchilari ishtirokida do'stlik uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Tadbir so'ngida «Lochin»ning lochinlariga homiylik tomonidan sport anjomlari, esdalik sovg'alar va «Faxriy yorliq» bilan rag'batlantirdilar.

Gulchehra MIRBOBOYEVA,  
132-maktabning oromgoh rahbari



**CHUMCHUQLAR HAYOTIDAN**

Uyimizda bir juft chumchuq ko'p yildan beri yashaydi. Yaqinda ularning tuxumidan ikkita palapon ochib chiqdi. Chumchuqlar ularni mehr bilan boqishdi, parvarishlashdi. Nihoyat, ularning inini tark etadigan vaqtlari keldi.




Shunda ota-ona chumchuqlar «o'quv mashqlari»ni boshlashdi: ular u yoqdan-bu yoqqa yuz martalab oshib uchib o'tdilar. Palaponlar bu mashqlarni diqqat bilan kuzatdilar, lekin indan chiqish - hech qachon!!!

Shunda boshqa chumchuqlar yordamga keldilar va umumiy harakatlar bilan ikki palapon inidan chiqib, to'g'ridagi daraxtga zo'rg'a qo'ndilar. Ona qush bu ishni bajargan boshqa qushlarga minnatdorchilik yuzasidan don berdi. O'ylab qarasa, ko'p jihatdan bu qushlar insonlarga o'xshab ketarkanlar. Shunda ona chumchuq chiday olmay o'z og'zida ovqat olib keladi.

Tohir IBRAGIMOV,  
tabiatshunos

## MEHR IZLAB BORAR YERIM



shahridagi 1-«Mehribonlik uyi»dan kelganmiz. Men bu yil 6-sinfga o'taman. Ramazon esa 1-sinfga chiqadi. U juda kamgap bola. Ko'proq xayol surishni yoqtiradi.

– Nimalarni xayol suradi? – qiziqsinib so'radim.

– Bilmadim, menimcha, ota-onasini sog'insa kerak.

– Sen-chi? Nimalar haqida o'ylaysan?

– Katta bo'lganimda,

Nigohlari bir nuqtaga qadalgancha nelarnidir o'ylayotgan bolakay atrofidagi do'stlariga, sho'x yangrayotgan kuy-qo'shiqlarga e'tibor bermasdi. Uning ko'zlarini atrofga ma'yus boqar, kichkinagina yuzlari esa allaqachon oftobda qorayib ulgurgan edi. Shu tobda u bilan suhbatlashgim, ma'yusligi sababini bilgim keldi:

– Ismim Ramazon, – dedi u ikkinchi bora ismini so'raganimdan so'ng. Bolakayning sust javobidan bildimki, uning e'tiborini jamlash men uchun qiyinroq kechadi.

– Oromgoh senga yoqdimi? – so'radim muloyimlik bilan.


– Yoqdi, – qisqagina javobi bilan nigohini mendan olib qochdi.

– Nimasi yoqdi? – deya uning quyuq sochlaridan siladim.

– «Mehrijon» degan nomi yoqdi. Endi yozgi ta'tilda faqat shu oromgohga kelaman.

Bolakayning bu javobi meni rostmana esankiratib qo'ydi. Shundan so'ng, unga boshqa savol bermadim, yonidagi qizchani suhbatga chorladim:

– Mening ismim Xurziya. Ramazon ikkimiz oromgohga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli



murabbiy bo'lmoqchiman. Shuning uchun ikki yildan beri sportning kikkoksing turi bilan shug'ullanyapman. O'zimni, yaqinlarimni himoya qilmoqchiman.


«Kimdan? Nimadan?» degan savollarim yuragim tubida qolib ketdi. Negaki, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi Toshkent shahar, Yunusobod tuman

bo'limi tomonidan tayyorlangan «Toshkent 2200 yoshda» nomli videolavha namoyishi boshlanib qolgandi. Go'zal poytaxtimizning qadimgi ko'rinishi hamda mustaqillikdan keyingi go'zal manzaralarni aks ettirgan bu lavha bolajonlarni sehrlab qo'ygandek bo'ldi, go'yo. Lavha namoyish etib bo'lingandan so'ng, Respublikamiz gerbiga oid savollarga bolajonlar bir-birlariga navbat bermay javob bera boshlashdi. Savolga to'g'ri javob bergan bolajonlarga markaz xodimlari yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli kitoblarini sovg'a qildilar. Shu lahzada Ramazonning ko'zlaridagi quvonchni ko'rib, kayfiyatim ko'tarilib ketdi. Vatanimiz haqidagi qo'shiq yangraganda esa o'rnidan turib raqsga tusha boshladi. Uning qo'l harakatlarini ko'rib, beixtiyor qarsak chalib yubordim.

Shunda bir narsani anglab yetdim, oromgohda dam olayotgan «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilarining aksariyati ota-ona mehriga qonmagan bo'lsa-da, ona Vatani ko'rsatayotgan mehr-e'tibordan

ko'ngli osmon qadar ko'tarilayotgan edi. Bu mehr ularning ko'zlariga quvonch, kelajakka ishonch bag'ishlab, umid bilan yashashga o'rgatayotganiga birgina Ramazonning kayfiyati timsolida amin bo'ldim.

Gulyuz BAHODIR qizi



parlarini osgan haqiqiy hindu turardi.

Ko'p o'tmay, amerikalik haqiqiy hindu yigitni bolalar qurshab olishdi. Kinolarda ko'rib, o'zlarini ham «hindu» bo'lib, bir-birlari bilan kurashga tushgan bolalar uchun bu haqiqiy tarixiy uchrashuv bo'ldi.

Almaz oyisini yetaklab hindu yigitning yoniga bordi va esdalik uchun suratga tushishdi. Maktabda o'qish boshlangach, bu unutilmas uchrashuv haqida Almazbek tengdoshlariga so'zlab beradi, suratni ham ko'rsatadi.

Nargiza RAZZOQOVA,  
yosh muxbir

## HAQIQIQY HINDUNI KO'RISHDI

Yoz oylari, ta'til payti bolalar uchun turli vaqealarga boy bo'ladi. Shunday kunlarning birida, Toshkentning qoq markazida ajoyib bir uchrashuv bo'ldi. Unda mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillari o'zlarining amaliy san'at namunalari namoish etdilar. O'ziga xos uchrashuvda poytaxtda faoliyat ko'rsatayotgan bir qator xorijiy davlatlar elchixonalarining xodimlari ham qatnashdi.

Uchrashuvda o'zining amaliy san'at bilan qatnashayotgan noshir Rossiya Jumanazarovning o'g'li Almazbek oyisining oldiga hayajon bilan chopib keldi.

– Oyi, qarang, haqiqiy hinduning o'zi.


Ona o'g'li ko'rsatgan tomonga sinchiklab razm soldi. U yerda boshiga va yelkasiga qushlarning



## QOPLON

Cho'ponlik kasbi Xolmat akaga ota meros. Uning

Qoplon degan kuchugi bo'lib, mana necha yildirki, Xolmat akaga katta yordami tegib keladi. U cho'ponni tushunadi. Ayniqsa, tunda bo'rilar izg'iganda, qoplon qo'rqmasdan ular bilan bir necha marotaba jang qilgan. Mana bugun ham kuzning daydi shamoli yomg'irni boshlab keldi. Kech tushib, Xolmat aka qo'ylarini qo'tanga qamadi. Va atrofga nazar tashlab, chaylasi tomon yo'l oldi. Yomg'ir kuchaygandan kuchayib borar, Qoplon allaqanday xavfni sezganday betinim hurardi. Shu payt uzoqdan bo'rilarining uvillagan ovozi eshitildi. Qoplon qo'tan atrofida parvona edi. Xolmat aka chayladan chiqdi. Ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. Negaki, bo'rilar bir-ikkita emasmi, uvillagan ovozlar tobora yaqinlashardi. Qoplon bo'rilar ovozi eshitilgan tomon yugurdi. Cho'pon tuni bilan uxlamay chiqdi. Bo'rilarining ovozi o'chdi. Tong otdi, lekin Qoplon qaytib kelmadi. Xolmat aka uni ikki kun qidirdi, oxiri butazorlar orasidan jonsiz jasadini topdi. Qoplon qonga belanib qolgandi. O'sha kechadagi qattiq jangda bo'rilar uni sodiq do'stidan jido qilishgandi.



Bahrom QILICHEV,  
yosh muxbir

2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI  
VA FAROVONLIGI YILISHOHSANAM  
TO'QIGAN SAVATBIZNING  
QISHLOQDAN  
O'TGAN...

Baytqo'rg'on yurtimizning so'lim go'shalaridan biridir. Unda Hosilot, Qizilko'prik, G'.Muhsimov va Akmal Ikromov nomli o'nta ko'cha mavjud. Azim Toshkent shahri va Chirchiq shahrini bog'lovchi avtomagistral yo'l ham bizning qishloqdan o'tgan.

Baytqo'rg'on 3000 dan ziyod aholi, 86 ta oila yashaydi, 6 ta ko'p qavatli bino, 2 ta umumta'lim maktab, qariyalar sihatgohi mahallamiz ko'rkiga yanada ko'rk qo'shib turadi. Men o'qiyotgan 17-maktabning sobiq o'quvchisi Shavkat Shomiddinov - polkovnik, Alijon Ikromov, Abdug'ani Mirazimov kabilar maktabimiz, qishlog'imiz faxriga aylanishgan.

Men Baytqo'rg'onim bilan faxrlanaman.

**Jamolxon ERKINOVA,**  
Toshkent viloyati, Qibray tumani

YANGI BINO  
QURILMOQDA

Qishlog'imizda bu yil biz yoshlar uchun kasb-hunar kolleji qurilmoqda. Bu yilgi bitiruvchilarni o'z bag'riga oladigan ushbu bino qishlog'imizga o'zgacha fayz kiritdi. Bundan tashqari, ko'plab manzarali ko'chatlar ekildi. Biz yoshlar ham chetda turganimiz yo'q. O'z go'shamizni yanada gullab-yashnashi uchun bor kuchg'ayratimizni ishga solmoqdamiz.

Ayni ta'til kunlarida maktabimiz kutubxonasiga keltirilgan yangi kitoblar bilan tanishib chiqyapmiz.


Bunday qulay sharoitlar uchun yurtboshimizga rahmat, deymiz.

**Nilufar ABDIYEVA,**  
Qarshi tumani, Hilol qishlog'i



**Quadrat ODINAYEV,**  
O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi

«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga



Jonivorlar jon-u dilim

O'zbek ayoli - bolasida fikri-  
xayoli



Qishlog'im mevalari

Ushbu rasmlar muallifi Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 95-maktab o'quvchisi Ma'rufjon ERKINOV

«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloviga

BIRINCHI  
MAKTUB

**Kutganimizdek, mazkur tanlovimizga kelayotgan maktublar soni ortsa ortyaptiki, kamaymayapti. Boisi, yozgi ta'til kitob o'qish uchun ayni qulay fursat-da.**

**Quyida sirdaryolik ikki kitobxon tengdoshingiz haqida ma'lumot bermoqchimiz. Har ikkala maktub ham Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabidan kelibdi. Maktab direktori Sh.Jumayeva, 4-«A» sinf rahbari G. Ahrorova hamda 7-«B» sinf rahbari R. Mirgazyanovlar quyiga imzo chekkan maktublarda shunday yozilibdi:**

4-«A» sinf o'quvchisi Shuhrat Ubaydullayevga nafaqat sinfdoshlari, balki ko'plab maktabdoshlari ham havas qilishadi. Boisi, u a'lochi bola, jamoat ishlarida ham faol. 1-sinf dan 4-sinf gacha sinf sardori vazifasini bajarib kelmoqda. Uch yildan buyon tuman miqyosida o'tkaziladigan «Husnixat» tanlovining g'olibi bo'lib kelyapti. O'tgan yili tumanda maktablararo o'tkazilgan shaxmat turnirida g'oliblik shohsupasini egallab, maktabi sharafini munosib himoya qilgandi.

«Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «A'lochilar» tanlovida qatnashib, «Eng bilimdon o'quvchi» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan. Bilim maskani qoshidagi «Zakovatli yoshlar» to'garagida bilimlarini yanada boyitib borayotgan Shuhratjon maktabda tashkil etilgan «A'lochi stipendiyasi» sohibi hamdir. Sportning «Mu aytay» turi bilan jiddiy shug'ullanadi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishni, kitob o'qishni yoqtiradi. Uning ayni damgacha o'qigan kitoblari soni 85 taga yetdi.

IKKINCHI  
MAKTUB

Shu maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi Shahnoza Shamsiddinova ham talaygina tanlovlar-u mushoiralarning g'olibasi. Ikki yil tumanda bo'lib o'tgan «She'rxonlik» mushoirasida 400 ta she'rni yoddan aytib, 1-o'rin sohibasi bo'ldi. O'tgan yili «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida she'riyat yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, g'olib bo'ldi va viloyat bosqichida faol ishtirok etdi. 2008-yildan tuman «Kamalak» bolalar tashkilotiga yetakchilik qilyapti. Bu yil «Yosh kitobxonlar» tanlovida faxrli o'rinni egalladi. O'quv yili davomida 7-sinf o'quvchilari orasida «Xorijiy tilni eng yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi» sifatida viloyat hokimi Abdurahim Jalolov stipendiyasi sohibasi bo'ldi. «Yosh matematik», «Kimyogar», «Chet tilini o'rganamiz», «Nihol» kabi to'garaklarning faol a'zosi Shahnoza ham maktabdagi «A'lochi» stipendiyasiga loyiq topilgan.

Bo'sh vaqtda kitob o'qiydi, rasm chizadi, ingliz tilidan tarjimalar qiladi. Yetti yildan buyon sinf sardori vazifasini bajarib, ustozining eng yaqin ko'machisi bo'lib kelyapti. Shahnozaning o'qigan badiiy va ilmiy ommabop kitoblari soni 135 taga yetdi.

**Tahririyatdan:**

Maktublarni o'qib, kitobxon bolalar ko'pligidan behad quvondik. Ayni ta'til kunlarida Shahnoza va Shuhratning o'qigan kitoblari soni bundan-da ortganiga ishonamiz.



# «OSHIQ MAJNUN» O'ZGARDI



O'quv yilining so'nggi kunlari edi. Adabiyot o'qituvchimiz «Men sevgan kasb» mavzuida insho yozib kelishni uyga vazifa qilib berdi. Ertasi kuni darsga kirgan ustozimiz sinfga qarata:

– Qani, bolalar, kim uy vazifasini bajarib keldi? – deya murojaat qildi.

Hech qachon dars tayyorlab kelmaydigan Sarvar ismli sinfdoshimiz birinchilardan bo'lib qo'l ko'tarsa bo'ladimi?!

Hammamiz hayron bo'ldik. Ayniqsa, o'qituvchimiz quvonib ketdilar:

– Qani, Sarvarjonning yozgan inshosini eshitaylik-chi, – deya uni doskaning yoniga chaqirdilar. Sarvar ishtiyoq bilan inshosini o'qishga kirishdi: «Men sevgan qiz»...

Sinfda qattiq kulgu ko'tarildi. Sarvar bu holning sababini tushunmay turgandi, birinchi partada o'tirgan Oybek izoh berdi:

– Sen sevgan qiz Shahnoza ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin qaysi kasbni yoqtirasan, buni hech kim bilmaydi, – dedi.

Biz esa Sarvarni «Oshiq Majnun» deya ancha paytgacha kulishib yurdik. Shu voqea sabab bo'ldi-yu, Sarvar o'qituvchilarning har bir gapini, ayniqsa, uyga vazifalarni diqqat bilan tinglaydigan bo'ldi. Muhimi, u dars tayyorlab keladigan bo'lib qoldi.

Shahlo ESHONQULOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani

# XANDALAR

O'qituvchi Pushkinning «Qarg'a va tulki» masalini yoddan aytib bergan o'quvchidan so'radi:

– Senga tulki yoqdimi yoki qarg'a?  
– Menga pishloq yoqdi...



Salom qadrlil «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari! Tunov kuni qo'limga gazetaning 14-soni tushib qoldi. «Quvnoq tanaffus» sahifasida e'lon qilingan Sur'at Salohiddinov chizgan rasmga qarab ertak yozdim. Sizlarga ma'qul bo'lsa, sahifangizda chop etarsiz:

## ERINCHOQ

Qadimda allaqaysi shaharda bir ferma bo'lgan ekan. U yerda Xo'roz, Kuchuk, Quyov, O'rdak va G'oz ahil yashashar ekan. Ferma yaqinidagi o'rmonda yashaydigan Qarg'a ham ularning yaqin do'sti ekan. Fermada bir maktab bo'lib, Xo'roz u yerda barcha parranda-yu jonivorlarga saboq berarkan. Quyovvoy bu maktabning eng a'lochi va jamoatchi o'quvchisi ekan. Lekin ustozining maqtoqlaridan biroz havolanib ketgan ekan.

Kunlardan bir kun Xo'roz o'quvchilariga bir she'rni yod olib kelishlarini tayinlabdi. Quyovvoy barcha darslarini tayyorlabdi. She'r yodlashga kelganda, erinchoqlik qilibdi. «O'qituvchimiz baribir mendan so'ramaydilar, baholarim juda ko'p-ku», deb o'ylabdi u.

Aksiga olib, ertasi kuni o'qituvchisi birinchi bo'lib Quyovvoydan uy vazifasini so'rabdi. She'rni yod olmagan Quyovvoydan jahli chiqqan o'qituvchi uning kundaligiga kattakon «2» baho qo'yibdi.

Ko'rdingizmi, bolajonlar, erinchoqlik juda yomon odat. Uyga berilgan vazifalarni vaqtida bajarishga odatlaning!

A'zamjon ABDUVAHOBOV,  
Farg'ona shahridagi 26-umumta'lim maktabining  
6-«B» sinf o'quvchisi

– Dada, bugun men avtobusda bir ayolning oyog'ini bosib oldim.  
– U nima dedi?  
– Bitta konfet berdi.  
– «Rahmat», dedingmi?  
– Yo'q, yana bir marta oyog'ini bosib oldim...



# TA'TIL

Find and write 21 words

S	Q	R	C	O	O	L	S	A	U	I	L	
A	X	B	A	D	C	O	W	Q	R	N	S	
B	A	F	A	S	T	R	L	W	H	V	E	
S	T	R	U	N	O	S	P	O	C	I	Q	
F	M	E	T	O	B	W	Q	K	V	T	P	
P	C	E	M	A	L	V	M	Y	U	E	O	
L	Y	P	N	K	P	O	S	W	A	R	M	
L	C	H	I	T	T	L	L	Y	O	Z	O	P
Z	U	N	U	K	U	S	W	Z	V	S	E	
I	W	C	A	L	L	L	D	L	Q	Q	S	
N	U	S	S	P	O	P	T	Y	U	E	W	
G	U	Z	B	E	K	I	S	T	A	N	O	
S	Z	W	I	Y	T	I	W	U	W	M	E	
A	U	J	D	G	Z	S	H	X	S	O	K	
B	A	N	A	N	A	D	O	D	S	E	W	

## QUVNOQ SABOHAT BILIMINGIZNI SINAYDI

Yozgi ta'tilni har kim har xil o'tkazadi: kimdir oromgohda dam olsa, kimdir bahavo tabiat qo'yniga o'tlanadi. Kimdir kitob o'qisa, yana kimdir hunar o'rganadi. Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumanining O'rtasaroy qishlog'ida yashovchi Sabohat Jabborovning ta'tili ham juda maroqli, mazmunli o'tayotgan ekan. U chet tillarini o'rganishga astoydil bel bog'labdi. Tengdoshingizning ingliz tilini ancha mukammal o'rganib olganini tahririyatimizga yuborgan ingliz tilidagi skanvord-u boshqotirmalaridan ham bilsa bo'ladi.

Ingliz tilidagi bilimlaringizni sinash maqsadida, ulardan birini e'tiboringizga havola qilyapmiz.



## Uchqunbekning savollari


### JIRAF

Vuy, bunchalar bo'yni uzun  
Jirafa deganlarin.  
Qachon yetib borarkin,  
Qorniga... yeganlari?

### KAPALAK

O'ylab qolaman ba'zan:  
Bu qanaqa jonivor -  
Qoni yo'g'-u bir qatra  
Uchib yurar - joni bor?

### (Turkum)



### BALIQ

O'zi-ku har doimo  
Suvda yuradi suzib.  
Ovqat yeydi, bilaman  
Suv ham icharmi, qiziq?

### BOYQUSH

Qiziq, nega odamlar  
Uni boyqush degan-a?  
Bir ko'rsaydim uyasin,  
Nimalar bor ekan-a...



Dilshod RAJAB

### TIPRATIKAN



Sho'rlkning badaniga  
Kim sanchgan shuncha tikan?  
Faqat bosh-u oyog'in  
Bekitib qolgan ekan.


### YONG'IR

Nechun tushmas shovullab  
Quyilganday chelakdan?  
Tushar xuddi o'tganday  
G'alvir yoki elakdan.



### KURKA

Birov rosa jahlini  
Chiqarganmi kurkaning.  
Nega yurar u doim  
G'azablanib, hurpayib?



### ZEBRA

Kim chuzgan ustidagi  
Qator-qator chiziqni?  
Yo biror xo'p savagan -  
Qamchilarning izimi?

### TOSHBAQA

Toshbaqa derlar, demak,  
U baqaning toshligi.  
Baqa bo'p qolarmikan,  
Tashlasa shu toshini?



### Quyoshim, oyim...

Ko'zlarimni yumsam har zamon,  
Onajonim bo'lar namoyon.  
Ular xushro'y, ular mehribon,  
Jajji qalbim orziqar hamon.

Ular mening borligim, jonim  
Ular mening yorug' jahonim.  
Ular mening quyoshim, oyim  
Men ularni eslayman doim.



Shohsanam SOBIROVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi  
10-maktabning 5-sinf o'quvchisi

### O'ZBEKCHA GAPIRAMIZ

Turli millat bolalarimiz,  
O'zbekiston lolalarimiz.  
Biz hamisha birgamiz,  
O'zbekcha gapiramiz.

### MEN HAM ASKAR BO'LAMAN

Men o'zbek o'g'loniman  
Orzularim ulkandir.  
Yuragimga yurtimning  
Iftixori to'lgandir.

Katta bo'lib elimga,  
Sodiq posbon bo'laman.  
Yurt tinchligi yo'lida  
Mangu qalqon bo'laman.



### SAVOL

Besh barmog'im, besh barmoq.  
Birinchisi bosh barmoq.  
Ikkinchisi ko'rsatkich,  
Beshinchisi jimjiloq.

Qolgan ikki barmoqning  
Nomini kim biladi?  
Qolgan o'sha barmoqlar  
Qanaqa ish qiladi?

### ATTANG-A!



Vazifani Vazira  
Bugun ishlab kelibdi.  
Misolini oson yechish  
Yo'lini qanday bilibdi?

Ustozi qoyil qolib:  
- Rahmat, - desa, - otangga.  
- Dadam yechganin bilib  
qoldingiz, - der, - attang-a...

Umida ABDUAZIMOVA

Dunyoda g'aroyibotlar, antiqa voqealar juda ko'p.  
Keyingi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim  
asarlarda zikr etilgan voqealar inson ongi mahsuli  
emas, balki oldindan bashorat qilingan hodisalar  
ekan.

Amerikaning Missuri shtatida Makduglis degan  
mashhur g'or bor. Qizig'i shundaki, bu g'or taniqli  
yozuvchi Mark Tvenning «Tom Soyerning  
sarguzashtlari» asaridan so'ng yangilanib, Mark  
Tven nomini oldi.

G'orni 1849-yilda Jek Simms degan havaskor  
ovchi topgan edi. Uni bir qarashda aniqlash mushkul:  
qoyatoshlar, dov-daraxtlar yashirib turgan bu  
manzilning uzunligini to'rt kilometrdan oshiq,

tashrif buyurishni istagan ko'plab sayyohlar,  
ovchilar va boshqa nufuzli kishilarning  
iltimoslariga ham quloq solmaydi. Lekin shumtaka  
bolalar sirni ochib qo'yadi-yu, bu yerga  
keluvchilar soni yanada oshib ketadi. Qizining  
o'limidan iztirob chekkan ota uni o'z holida  
saqlash uchun bor ilmini ishga soladi. Jasadni  
shisha tobut ichiga joylab va uni asliday saqlash  
uchun sovuq va qorong'i g'orga yashiradi. Mark  
Tven g'orda bo'lib, qizning shisha tobutda  
tirikday yotganini, hatto yuzi kumushday jilolanib  
turganini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shunday qilib,  
qizchanning jasadni shisha tobutda ikki yilgacha  
yaxshi saqlanadi. Keyinchalik kim tobutdagi

«malika»ni, ya'ni Elenni ko'rsa,  
baxtsizlikka yo'liqadi, degan mish-  
mishlar tarqaladi. G'orga kelib, uni  
ko'rgan bir qancha bolalar ham  
kasallikka  
ch al in i -  
sh a d i .  
S e n t -  
L u n e d a  
yashovchi  
bir fuqaro  
u y i d a  
isitgichni

## Mark Tven va g'ordagi "MALIKA"

deyishadi. Mark Tven:  
«Hali hech kim g'orning  
oxirigacha borgan  
emas», deb yozgan edi.

1849-yilda doktor Jozef Mak Daugll shu yaqin  
atrofdagi yerlarni sotib oladi. Ana undan keyin deng,  
aziz bolalar, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar  
boshlanadi. Shifokor bu yerga ko'chib kelib, umr  
yo'ldoshi va qizi bilan yashay boshlaydi. Ko'plab  
odamlarning hayotini saqlab qolganligi bois, qo'li  
yengil, bilimdon shifokorning obro'-e'tibori baland  
edi. Kutilmaganda, u g'or og'ziga katta og'ir dub  
eshik o'rtanib, uni mahkamlab berkitadi. Bu yerga

unutib qoldirgani tufayli yong'in kelib chiqadi.  
Shaharliklarning noroziliklari bois, Jozef Mak  
Daugll qizining jasadini shahar qabristoniga dafn  
ettiradi. U vafot etishidan oldin qarindoshlariga  
mumiyolashtirish sir-asrorlarini yozib qoldirib,  
o'zini ham shu usul bilan mumiyolashtirishni  
vasiyat qiladi. Lekin yaqinlari uning bu vasiyatini  
bajarishmadi. Shunday qilib, ota va qizni el qatori  
tuproqqa topshirishdi.



### QISHLOQDAGI VAQINIM

Mening Shohizar ismli  
bir dugonam bor. Mendan  
bir yosh katta bo'lsa ham,  
bir-birimizga yaqin  
sirdoshmiz. Har safar  
ta'tilda qishloqqa,  
buvimnikiga borganimda,  
u bilan orzu-havaslarimiz

haqida o'rtoqlashamiz.

Katta bo'lganimda, men jurnalist, u esa o'qituvchi  
bo'lmoqchi. Buning uchun qaysi fanlarni puxta o'zlashtirish  
va o'rganish kerakligini bilamiz. Hozirdanoq informatika,  
ona tili va adabiyot, ingliz va rus tillari, tabiat fanlaridan  
a'lo baholarga o'qiyapmiz. Chunki o'qituvchi va jurnalistlar  
o'z ona tilidan tashqari, kompyuter hamda chet tillarini  
ham yaxshi bilishi kerak.

Nigorabonu ABDUVAHOBOVA,  
Farg'ona shahridagi 26-umumta'lim  
maktabining 4-sinf o'quvchisi

### SO'NGGI PUSHAYMON

Talaba bo'lsam ham hali-hanuz bolalar nashrlarini kuzatib  
boraman. Chunki o'tib ketgan o'quvchilik davrimni endi qaytarib  
bo'lmasligini yaxshi tushunaman. Maktabda o'qiyotgan  
bolalarning aksariyati bu davrning gashtini his qilmaydilar. Talaba  
bo'lganlarida esa nima uchun maktabda yaxshilab o'qib, o'rganib  
olmadim, deya afsuslanadilar. Shuning uchun ham, aziz bolajonlar,  
maktabdagi ustozlar o'gitini vaqtida olishga harakat qiling. Zero,  
yoshlikdagi qimmatli vaqtni boy berib, keyin afsuslanib yurmang.

Dilnoza RUSTAMOVA,  
yosh muxbir

## DENOV - QADIM SHAHAR

Mustaqillik xalqimizga milliy qadryatimizni qaytarib bergani katta haqiqatdir.

E'tiqodsiz inson yelkansiz kemaga o'xshaydi: beqaror to'lqinlar, betayin oqimlar uni beqarmon sarson qiladi. Mustabid sho'ro zamonida bizning ahvolimiz ana shunday, zotan tarix, madaniyat u yoqda tursin, hatto olish, bo'lish, qo'shish, ko'paytirish singari to'rt amal ham mafkuraviylashgan davrda bundan bo'lakcha ham bo'lishi mumkin emas edi. Biz yetmish yil, u yog'i bilan bir yuz ellik yil tariximizni, ya'ni milliy boyligimiz bo'lgan qadriyatlarimizni toptash, oyoq osti qilish, aziz kitoblarimizni yoqish bilan mashg'ul bo'ldik - bu amallarimizdan yurakda atirgul shaklidagi jarohatlar qoldi.

O'rmonga o't ketib, ho'l-u quruq barobar yongani bilan baribir nimalardir qolar ekan.

«Shajarayi-turk» uchun Abdulg'oziy Bahodirxonning oldidagi qarzimizni to'qiyomatgacha uzolmasak kerak.

O'qiganmiz - akademik G.A.Pugachenkova-ning «Xolchayon» degan kitobi bor: o'tgan asrning oltmishinchi yillari Toshkentda rus tilida chop etilgan. Kitob miloddan avvalgi III-I asrlarda taraqqiy etgan, hattoki gullab yashnagan gavjum istiqomat manzili, bugungi ibora bilan aytganda, bir shahar haqida ma'lumotlar beradi va XX asrdagi xalqqa qo'shilib, bu shaharning nomini «Xolchayon» deb atagan muallif tafsilotlarini bayon qilar ekan o'sha zamonda yoki miloddan biroz avval yozilgan birona yozma manbaga suyanmaydi. Muallifning asosiy manbasi-arxeologik qazishlar chog'i topilgan tangalar, taqinchoqlar, uy-buyum jihozlari, xumdon, qabristonlar, ustunlarning tag kursilari, poydevorlar, xullas, yigirma uch asrdan beri tuproq tagida yotgan buyum - ashyolar. Olima topilgan ashyolarga qarab tarixni, ijtimoiy-siyosiy hayotni, diniy urf-odatlar, istiqomatchilarning kasb-kori, umuman, turmush tarzini va undan boshqa juda xo'p tafsilotlarni xayolan tikladi va juda to'g'ri qilgan.

Xullas, Denov - katta shahar, uning tarixi ham olisga borib taqaladi.

## XOLCHAYON

Ana endi Xolchayonning qayerdanligini so'rang, men aytay: u Denov shahrining kun chiqish tarafida, Surxon daryosining qirg'og'ida joylashgan.

Xuddi hozirgidek ilgari ham suv-hayot, istiqomat manbai bo'lgan. Olimlar Xolchayonning quyirog'ida, Surxon daryosining Qizilsuv daryosi bilan qo'shilgan joyidan «Budrach» degan qadimiy istiqomat manzili shahar qoldiqlarini topishdi. Mutaxassislar «Budrach»ni Buddaga nisbat beradilar. Demak, miloddan ilgari bu o'lkalarda buddaviylik alohida mavqega ega bo'lgan. Bu manzildan Qizilsuv daryosi bo'ylab yuqoriga yursangiz, Denov tuproqqo'rg'onining poyidan chiqasiz.

XX asrning 60-yillarida Xolchayon qisman tadqiq qilindi, miloddan ilgari tarixiy obidalarning ustiga hozir turar joylar qurilgan.

Ko'p, juda ko'p yillardan beri na Xolchayonda, na Budrachda, na tuproqqo'rg'onida arxeologlar ish olib borayaptilar va hatto bunday reja ham yo'q.

Tarix esa bilganidan qolmaydi - o'tmishni yer bag'riga joylagan qadimgi Chag'oniyon milodning ikkinchi ming yilligida ham muazzam saltanat sifatida barqaror bo'ldi: O'lmas Naqshbandiya tariqatining to'lmas targ'ibotchisi va komil namoyondasi Xoja Alouddin Attor hazratlari umrining so'nggi kunlarigacha bu qutlig' maskanda istiqomat qildi.

Yurtdoshimiz Mingziyo Safarov yozadi: «Qadimgi Chag'oniyon davlati arablar hujumini bir necha bor qaytardi. Qutayba boshliq arab lashkarlari 712-yilda Chag'oniyonga bostirib kirgan edi. Biroq, ular qattiq qarshilikka uchradilar. Arablar Chag'oniyon davlatini bosib olishgan. Oradan yuz yillar o'tgach, Chag'oniyon yana rivojlana boshladi. Chag'oniyon mo'g'illar hujumga qadar eng taraqqiy etgan, boy mamlakatlardan biri bo'lib qoldi».

## FARRUHIY KIM?

Farruhiy XII asrning ulug' namoyondasi

Nizomiy Aruziy «Majnun navodir» degan bir ajoyib kitobida mana bularni yozadi: «Farruhiy seyistonlik bo'lib,

Halif ibn Bonuga qarashli Gulom Julug'ning o'g'li edi. Iste'dod yuksak darajada bo'lib, she'rni yaxshi yozardi. Chang ham chalarda. U seyistonlik dehqonlardan birining mulkida ishlar, dehqon esa unga har yili besh manlikdan ikki yuz qayl g'alla, yuz drham Nuhiy kumush pul berar edi. Bu narsalar uning sarf-xarajatlarini qoplab turar edi».

Farruhiy Xalaf yaqinlaridan biriga uylangach, harji oshadi va bo'yniga olahurjun tushib, farqlashib qoladi. U kelib-ketuvchilardan olamnng boshqa yerlarida birorta mo'tabar kishining bor yoki yo'qligi haqida surishtira boshlaydi. Agar bo'lsa, o'sha kishining huzuriga bormoqchi bo'ladi. Oxiri Chag'oniyonda amir Abdulmuzaffar Chag'oniy borligi, u bunday toifadagi odamlarni tarbiyat qilishi va bu xildagi kishilarga hadya hamda qimmatbaho sovg'alar in'om etishi, hozirgi paytda asr podsholari va zamon amirlari ichida bu sohada unga teng keladigani yo'qligi haqida xabar topadi. Yo'l hozirligini ko'rgach, Chag'oniyonga qarab jo'naydi.

Amirning kadxudosi amid Asad



# CHAG'ONIYON

saroyda qolgan bo'lib, amirga olib borish uchun ziyofat ne'matlarini hozirlar edi. Farruhiy uning huzuriga kelib, qasidasini ko'rsatadi. Xoja amid Asad fozil kishi edi va shoirlarni yoqtirardi. Farruhiyning she'rlari latif, yoqimli, chiroyli yozilgani, ammo uning o'zi beo'xshov, libosining orqa-oladi yirtilgan, boshida katta seyistoniy salla, kovushi eski, oyog'i kir, she'ri esa yuksaklikda yettinchi osmonda ekanini ko'rib, mazkur she'rlarni seyistoniy yozganiga ishonmadi. Uni sinab ko'rish maqsadida: «Amir hozir dog'gohda, men uning huzuriga bormoqchiman, seni ham o'zim bilan birga dog'gohga olib ketaman, dog'goh shunday chiroyli joyki, sen unda sabzalar olamidagi boshqa dunyoni ko'rsan, hammayoqda chaylalar, yulduz kabi chiroqlar. Chodirlarning har biridan rud ovozlari keladi, do'stlar jam bo'lishadi. Amirning dog'gohi oldida har biri osmonga o'rlagudek gulxan yoqilgan bo'ladi. Bu yerda toychoqlarga tang'a bosishadi. Podshoning esa bir qo'lida sharob, bir qo'lida kamand. Odamlarga ot in'om qiladi. Shu holga moslab qasida yoz, dog'gohni vasif qil, so'ng seni ham o'zim bilan birga amirning huzuriga olib ketaman!» deydi.

Farruhiy chiqib ketadi va tunda ajoyib qasida yozib, tong saharda Xoja amid Asad huzuriga keladi. O'sha qasida mana budir:

Ko'k harirdan yuziga yopgach ro'molni sabzazor, Yetti xil rang parnayoni boshga soldi kuhzor.

Xoja amid Asad bu qasidani eshitib, hayron qoldi. Negaki, bunga o'xshagan qasidani aslo eshitmagan edi. U barcha ishini yig'ishtirib Farruhiyni otga mindiradi-da, amir sari ravona bo'ladi.

Amir Farruhiyning o'z huzuriga kirishga ruxsat etadi. Farruhiy uning huzuriga kirib ta'zim qiladi, amir

qo'lini cho'zib o'tirish uchun joy ko'rsatadi, hol-ahvol so'rab, e'zozlaydi, iltifotlar ko'rsatadi. Farruhiyning ko'nglida umid uchqunlarini yondiradi. Farruhiy o'rnidan turib, hazin; ammo yoqimli ovoz bilan bu qasidani o'qiydi:

Libos karvoni bilan jo'nadim Seyistondan...

U qasidani o'qib bo'lgach, she'rni yaxshi tushunadigan va o'zi ham she'r yozib yuradigan amir bu qasidaga lol qolganini aytadi. Amid Asad «Ey, olampanoh, sabr qil, hali bundan ham yaxshirog'ini eshitasan!» deydi.

Keyin o'rnidan turib, dog'goh haqidagi qasidasini o'qib beradi. Amir qattiq hayratga tushadi va shu hayrat ichida Farruhiyga qarab deydi: «Ming toychoq olib kelishgan. Hammasining yuzi oq, oyoqlari ham oq, Xatlon zotidan. Senga ixtiyor berdim, sen Seyistoniysan, chapdast kishisan, qancha tuta olsang, tut, bari o'zingniki bo'ladi!».

Farruhiy tashqariga chiqadi, boshidan sallasini olib, o'zini ot uyuri ichiga uradi, bir gala toychoqlarni tinimsiz quvar, ammo birortasini ham tuta olmas edi. Oxiri o'rda yonidagi vayrona rabotga duch keladi. Toychoqlar o'zlarini rabot ichiga urishadi.

Toychoqlarni sanashsha, ular qirq ikkita ekan. Buni amirga xabar qiladilar. Amir rohat qilib kuladi, so'ng taajjublanib deydi: «Toleyi kulgan kishi ekan! Uni hamda toychoqlarni ehtiyot qilinglar! Uyg'onishi bilan menga xabar beringlar!» Podshohning amrini bajaradilar.

Ertasi quyosh chiqishi bilan uyqudan turib. U Farruhiyni qabul qilib, mehribonliklar ko'rsatadi. Toychoqlarni esa uning odamlariga topshiradi. Amir Farruhiyga yasatilgan ot, ikkita chodir, uchta xachir, beshta qul, kiyish uchun libos va to'shach uchun gilam in'om qiladi. Uning xizmatida Farruhiyning ishlari yurishib ketadi va a'lo darajaga yetadi.

## CHAG'ONIYONLIKLAR QANDAY ODAMLAR?

M u a l l i f i  
aniqlanmagan, ammo  
o'zi 982-yili yozilgan  
«Hudud-ul-olam»  
kitobidan:  
«Chag'oniyon-(bir)  
katta tuman,  
ekinzorlari ko'p.

Dehqonlari tirishqoq, darveshlar joyi, lekin noz-ne'matlari ko'p. Odamlari botir. Bu yerning havosi sog'lom, yeri hosildor va suvlari yaxshi, u yerda yilqi boqiladi, chakmon, gilam-to'shak va ko'plab za'faron tayyorlanadi. Bu joyning podshosi muxtoriyat (huquqiga ega)» hokimlardan hisoblanadi va uni Chag'oniyon amiri deydilar!»

Yana shu kitobdan:

«Chag'oniyon - katta shahar, tog' etagida joylashgan. Ushbu tumanning bosh va markaziy shahri, oqar suvli va xush havoli bir joy».

Yana shu kitobdan:

«Shosht» - tog' va dalalarda joylashgan tuman, Butamon va Xatlon oralig'ida. Rustolari va ekinzorlari ko'p. Bu tumanning ulug'larini Shosht dehqonlari deyishadi.

Xullas, bundan ming yillar nari-berisidagi chag'oniyliklar ana shunday odamlar bo'lishgan va ularning barini ham XXI asrning bo'sag'asidan turib ehtiromlar bilan tilga olamiz, zotan o'tmishni tahrir qilib bo'lmaydi.

*Toshtemur TURDIYEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi, Denov tumani  
ma'naviyat-targ'ibot bo'limi rahbari*

# GAZETANING «YURAGI»



Qadrli bolajonlar, mana bu suratga boqib, nimalarni his qilyapsiz? Beixtiyor yuzingizga tabbassum yugurib, bu quvnoq suratlash kim bo'ldi ekan-a, deya yotgandirsiz? Tanimagan bo'lsangiz, suratni kattalarga - ota-onangiz yoki buva, buvijonlaringizga ko'rsating. Ular hayajon bilan: «Iye, bu o'sha mashhur suratlash Ravil Albekovku», deb yuborishlariga aminman. Chunki «Tong yulduzi» (avvalgi «Lenin uchquni») gazetasining chin ma'noda yuragi sanalgan Ravil aka olgan suratlar uzoq yillar mobaynida nafaqat bolalar nashrlari, balki respublika miqyosidagi deyarli barcha gazeta va jurnallar sahifalaridan tushmay kelgan. Shuning uchun ham uni hamma yaxshi tanigan, bilgan, suratlaridan xuddi bir maqoladagidek ma'no-mazmun uqishgan. Endilikda ana shu quvnoq suratlash yigit nuroniy bobo bo'lib, farzandlari, nabiralari ardog'ida keksalik gashini suryapti.

- Ravil bobo, gazetaning 80 yilligi munosabati bilan siz haqingizda maqola yozmoqchi edik, - dedik telefon orqali otaxon bilan bog'lanib.

- E-e, men haqimda nimani ham yozardingiz? Keyin, ularning kimga ham qizig'i bor?..

- dedilar odatdagidek kamtarona ohangda...

Buni qarangi, ular bilan qilgan suhbatimiz, eshitgan xotiralarimiz asosida maqolagina emas, balki kitob yozsak ham kamlik qilarkan. Quyida ana shu maroqli xotiralardan bir shingilini e'tiboringizga havola qilyapmiz:

## ILK QADAM

- Bolaligimni juda yaxshi xotirayman. O'rtoqlarim bilan uyimiz yaqinidagi bolalar saroyiga borib turardik. U yerdagi to'garaklarda kasb o'rganayotgan bolalarga havas qilib, dastlab modelchilar to'garagiga, keyin rassomlik to'garagiga qatnadim. Bu to'garak mashg'ulotlari meni unchalik qiziqitirmadi. Bir kuni to'garagimizga uch-to'rt bola ustoz bilan kelib, rasm chizayotgan bolalarni turli holatlarda suratga tushira boshlashdi.

- Suratlarini qachon ko'rsa bo'ladi? - deb so'rasam:

- Hozir laboratoriyada chiqaramiz, istasang, yur biz bilan, - deyishdi.

Shu tariqa yosh suratlashlar to'garagiga a'zo bo'ldim. Menga ilk bor ustozlik qilgan Neron Aleksey Vladimirovich hamda Naim Abdulxakovich Teregulovlardan bir umr minnatdorman. Saroy qoshidagi dramteatr to'garagi rahbari Uchqun aka Rahmonov bolalar gazetasiga maqola tayyorlab, men olgan suratlardan foydalanib turardi. Keyinchalik turli sayr-u sayohatlarda olgan suratlarim asosida gazeta sahifalarida fotoreportaj,

fotolavha va etyudlar chop etila boshladi. Suratlarim ma'qul bo'lgani uchunmi, tahririyat xodimlari meni turli tadbirlarga, dala shiyponlariga, o'quvchilar oromgohlariga birga olib ketadigan bo'lishdi. Maktabni tamomlagach, ikki yil mobaynida gazeta tahririyatida tajriba orttirdim. 1957-yilda gazeta Bosh muharriri G'ani Jahongirov xonasiga chaqirib: «Ariza yozing, sizni fotomuxbir qilib ishga olamiz», deganida, qanchalar quvonganimni so'z bilan ifodalash qiyin. Bu tahririyat men uchun katta hayot maktabi bo'ldi. Kasbim taqozosi bilan respublikamizning barcha shahar, tuman va qishloqlarini kezdirdim, doimo odamlar orasida bo'ldim. Bunday ijodiy safarlar tajribamni orttirdi, chiniqtirdi, yaxshi va yomonni farqlashni o'rgatdi.

Bir kuni Bosh muharririmiz meni chorlab, Oybek domla haqida maqola beryapmiz, uylariga borib suratga tushurib keling, deb qoldilar. Hayajonimni bir ko'rsangiz edi, axir shunday zabardast yozuvchi bilan yuzma-yuz gaplashishning o'zi bo'ladimi axir?! Bordim, gavdali, chiroyli odam ekanlar. Bog'da, kutubxonada nabiralari bilan suratga tushurib qaytdim. O'sha paytlarda gazeta qoshida faoliyat yuritgan «Yosh muxbirlar» maktabi mashg'ulotlariga Shayxzoda, Uyg'un, Abdulla Qahhor, G'afur

G'ulom, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim, Tolib Yo'ldosh, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi taniqli shoir va yozuvchilar tez-tez kelib turishardi. Men esa yosh qalamkashlar yodida bir umrga saqlanib qoladigan bunday uchrashuvlarni tarixga muhrlab qo'yardim.

O'tgan umrimga nazar tashlasam, uning hech bir kuni yo'qki, mana shu gazeta bilan bog'liq bo'lmagan. «Charm to'p», «Quvnoq startlar», «Svetofor», «Yosh turistlar va o'lkashunoslar» musobaqalarida, kitob haftaliklari va oyliklarida yugurib-yelib suratga olganlarimni eslasam, hamon zavqim keladi.

Butun dunyoni kezeb chiqqan chex jurnalist-sayohatchilari Irji Ganzelka va Miroslav Zigmundlar Toshkentga kelishganida, ular bilan uchrashishning o'zi bo'lmagan. Katta-katta nashrlarning suratlashlari qolib, omad menga kulib boqqan. Ular bilan uchrashib, gazetaga atalgan dastxatlarini yozib olganman.

Poytaxtimiz mehmoni bo'lgan Fidel Kastro, Pol Robson kabi o'sha davrning taniqli odamlari, kosmonavtlar, taniqli shoir va yozuvchilarning suratlarini olish baxtiga muyassar bo'lganman. Respublika fototanlovlarida qatnashib, sovrinli o'rinnlarni olganman. Bolalar hayotiga oid suratlarim Germaniya, Bolgariya, Polsha, Ukraina, Belorusiya, Gruziya kabi davlatlarda


Taniqli adiblarimiz bilan bo'lgan uchrashuvlardan biri sira yodimdan chiqmaydi. Ardoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorni suratga tushirish uchun uyiga borgandik. Abdulla aka, Erkin Vohidov, Nosir Fozilov, Ibrohim G'ofurovlar bilan suhbatlashib

## 40 YILLIK SURAT TARIXI

o'tirgan ekanlar.

Davruga qo'shildik. Kibriyo opa eshikni ohistagina ochib, mayda-mayda qilib tugilgan qovoq somsalar olib kirdilar. Ular shu darajada totli ediki, ta'mi hamon og'zimda qol-

gan. Keyinchalik bunday mazali somsalarini hech qayerda yemadim. Shu kuni Abdulla akani alohida, so'ngra Kibriyo opa bilan birgalikda tushirgan suratlarim «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bir necha bor chop etildi. Buyuk yozuvchimizning oxirgi suratlaridan biri bo'lgan bu suratning olinganiga ham 40 yildan oshibdi...



chop etiladigan bolalar nashrlarida ham tez-tez ko'rinib turardi.

Uzoq yillik samarali mehnatlarim hukumatimiz tomonidan munosib qadrlandi: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga ega bo'ldim, ko'plab «Faxriy yorliq»lar, Diplomlar bilan taqdirlandim.

Xullas, bolalarga baxshida umrim besamar o'tmadi, nazarimda...

Qalb qo'ri, yoshlik shijoati, bor kuch-g'ayratini sevimli, kamtarona kasbiga bag'ishlagan Ravil boboning so'zlariga e'tibor berdingizmi: umrim besamar o'tmadi...

Bunday shukronalik so'zlarini aytilish har birimizga nasib etsin!

**UMRIM MAZMUNI**

Feruza JALILOVA yozib oldi.

1-betdagi surat muallifi Feruza SOYIBJON qizi



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Zuhra MUHSIMOVA,  
Elyor ESHCHONOV  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 28229  
Buyurtma N: J 7723